| | | |
|---|---|---|
| 1. | **EMITENT NOMI** | |
| | To'liq nomi: | «KAPITALBANK» aksiyadorlik tijorat banki |
| | Qisqartirilgan nomi: | «KAPITALBANK» ATB |
| | Birja tikeri:* | KPB |
| 2. | **BOG'LANISH UCHUN MA'LUMOTLAR** | |
| | Joylashgan joyi: | Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sayilgoh ko'chasi, 7 |
| | Pochta manzili: | 100047, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sayilgoh ko'chasi, 7 |
| | Elektron pochta manzili:* | info@kapitalbank.uz |
| | Rasmiy veb-sayt:* | www.kapitalbank.uz |
| 3. | **MUHIM FAKT TO'G'RISIDA AXBOROT** | |
| | Muhim fakt raqami: | **06** |
| | Muhim fakt nomi: | **Emitentning yuqori boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qarorlar** |
| | Umumiy yig'ilish turi: | Navbatdan tashqari |
| | Umumiy yig'ilish o'tkazish sanasi: | 21.12.2018 |
| | Umumiy yig'ilish bayonnomasi tuzilgan sana: | 21.12.2018 |
| | Umumiy yig'ilish o'tkazilgan joy: | Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sayilgoh ko'chasi, 7 |
| | Umumiy yig'ilish kvorumi: | 90,19% |

| **№** | **Ovoz berishga qo'yilgan masalalar** | **Ovoz berish yakunlari** | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **yoqlash** | | **qarshi** | | **betaraflar** | |
| | | **%** | **soni** | **%** | **soni** | **%** | **soni** |
| **1.** | "Kapitalbank" ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish reglamentini tasdiqlash to'g'risida | 100 | 91 256 746 | | | | |
| **2.** | "Kapitalbank" ATB ustav kapitalini avvalgi yillarda taqsimlanmagan foydani kapitallashtirish hisobiga miqdori 10 117 900 donani, umumiy nominal qiymati 9 612 005 000 so'mni tashkil etgan egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz aksiyalarni qo'shimcha ravishda chiqarish orqali ko'paytirish haqida | 100 | 91 256 746 | | | | |
| **3** | Miqdori 10 117 900 donani, umumiy nominal qiymati 9 612 005 000 so'mni tashkil etgan egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz aksiyalarni qo'shimcha ravishda chiqarish to'g'risidagi Qarorni tasdiqlash haqida | 100 | 91 256 746 | | | | |
| **4** | Kutilmagan holatlar hisobvaraqlarida hisobga olingan ishonchsiz aktivlarni va boshqa qarzdorlikni hisobdan chiqarish bo'yicha qarorni tasdiqlash haqida | 100 | 91 256 746 | | | | |

**Umumiy yig'ilish tomonidan qabul qilingan qarorlarning to'liq bayoni:**

| | |
|---|---|
| 1. | 1.1. Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Reglamenti quyidagi tartibda tasdiqlansin:<br>- kun tartibidagi masalalar bo'yicha ma'ruzachilarning chiqishlariga – 10 daqiqagacha;<br>- qo'shimcha chiqishlar, e'tiroz va muzokaralar uchun – 5 daqiqagacha;<br>- savol-javoblar uchun – 5 daqiqagacha. |
| 2. | 2.1. 10 680 005 555 so'm 55 tiyin miqdorida avvalgi yillarda taqsimlanmagan foydaning bir qismi (bankning 2016-2017 yillardagi moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga ko'ra) 1 068 000 555 so'm 55 tiyin miqdorida daromad solig'i (10 foiz) ushlab qolinganligini hisobga olgan holda hamda 9 612 005 000 so'm miqdorida qolgan summa bankning ustav kapitalini ko'paytirishga yo'naltirilsin.<br>2.2. Daromad solig'i summasi SPRL "East West Invest" kompaniyasi kapitallashtirish ulushiga erkin almashtiriladigan valyutaga almashtirilgan holda, mablag'lar norezident aksiyador taqdim etgan bank hisobraqamiga o'tkazilgan holda o'tkazilsin.<br>2.3. Aksiyalarni qo'shimcha ravishda chiqarishning asosiy parametrlari tasdiqlansin:<br>- miqdori 10 117 900 donani, umumiy nominal qiymati 9 612 005 000 so'mni tashkil etgan ushbu chiqarilishdagi aksiyalar bank aksiyadorlari o'rtasida yopiq obuna bo'yicha joylashtiriladi;<br>- ushbu chiqarilishdagi aksiyalar miqdori 10 117 900 donani, umumiy nominal qiymati 9 612 005 000 so'mni tashkil etgan egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz aksiyalarni qo'shimcha ravishda chiqarish orqali ushbu chiqarilish Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kunda shakllangan bank atsiyadorlari reyestriga muvofiq aksiyadorlar hisoblangan bank aksiyadorlari o'rtasida yopiq obuna bo'yicha joylashtiriladi. |

| | | |
|---|---|---|
| | | Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo‘lsa, ayni o‘sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda, har 10 aksiyaga 1 qo‘shimcha aksiya hisobidan taqsimlanadi va har qanday bitimlarni tuzish nazarda tutilmaydi.<br>- ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishining muddati – ushbu chiqarilish Qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab ko‘pi bilan bir yil. Aksiyalarni joylashtirishning boshlanishi – aksiyalar chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab. Aksiyalarni joylashtirishning tugashi – aksiyalar chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab ko‘pi bilan bir yil.;<br>- emitentga ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilarini (anderrayterlarni) jalb etish nazarda tutilmaydi;<br>- ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni joylashtirish bank aksiyadorlari tomonidan ushbu chiqarilishdagi aksiyalarni xarid qilish bo‘yicha imtiyozli huquq qo‘llanilmagan holda bank aksiyadorlari o‘rtasida yopiq obuna bo‘yicha amalga oshiriladi;<br>- aksiyalarni to‘lash shartlari va tartibi: ilgari joylashtirilgan summasi 96 120 050 000 so‘mni tashkil etgan aksiyalar qismi nominal qiymati bo‘yicha to‘langan hisoblanadi, summasi 9 612 005 000 so‘mni tashkil etgan ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning ko‘paytiriladigan qismi (bankning 2016-2017 yillardagi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga ko‘ra) avvalgi yillarda taqsimlanmagan foyda hisobidan nominal qiymati bo‘yicha to‘landi;<br>- miqdori 10 117 900 donani, umumiy nominal qiymati 9 612 005 000 so‘mni tashkil etgan aksiyalarni to‘lash O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasidagi pul mablag‘lari bilan amalga oshiriladi;<br>- miqdori 10 117 900 donani, umumiy nominal qiymati 9 612 005 000 so‘mni tashkil etgan aksiyalar nominal qiymati bo‘yicha joylashtiriladi va har qanday bitimlarni tuzish nazarda tutilmaydi. |
| | 3. | 3.1. Miqdori 10 117 900 donani, umumiy nominal qiymati 9 612 005 000 so‘mni tashkil etgan egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz aksiyalarni qo‘shimcha ravishda chiqarish to‘g‘risidagi Qaror (ilovaga muvofiq) tasdiqlansin.<br>3.2. Bank Boshqaruvi (Sh.K. Karimbayev) zimmasiga aksiyalarning qo‘shimcha chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bilan bog‘liq barcha zarur tadbirlarni amalga oshirish yuklatilsin. |
| | 4. | 4.1. 247 482 531,57 so‘m summaga yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlar bo‘yicha tashkil etilgan rezerv hisobiga “Boshqa ko‘zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari” 95497 balansdan tashqari schyot hisobidan yo‘q qilingan ximikatlar qiymati chiqarib tashansin<br>4.2. 817 000,00 so‘m summaga yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlar bo‘yicha tashkil etilgan rezerv hisobiga “Boshqa aktivlar bo‘yicha foizlar va vositachilik haqlari” 91505 balansdan tashqari schyot hisobidan bank xizmatlari uchun vositachilik haqi chiqarib tashlansin. |

**Emitentning ijroiya organi, kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi a’zolari foydasiga hisoblangan va to‘langan haq va (yoki) kompensatsiyalar:**

| | F.I.Sh. | Shaxs a’zosi hisoblangan emitent organining nomi | To‘lov turi (haq va (yoki) kompensatsiyalar) | Hisoblangan summa (so‘m) | Mablag‘lar hisoblangan davr | To‘lov nazarda tutilgan emitent hujjati |
|---|---|---|---|---|---|---|

Kuzatuv kengashi a’zolarini saylash:

| Nomzodlar to‘g‘risida ma’lumot | | | | | Ovovzlar soni |
|---|---|---|---|---|---|
| **№** | **F.I.Sh.** | **Ish joyi** | **Tegishli aksiyalar** | | |
| | | | **turi** | **soni** | |

| | |
|---|---|
| Ustavga kiritilayotgan o‘zgartirish va (yoki) qo‘shimchalarning matni ** | |

Ijroiya organi rahbari: Karimbayev Sherzod Qobilovich

Bosh buxgalter: Skuybida Yelena Yevgenyevna

Veb-saytda axborot joylashtirgan vakolatli shaxs: Amanova Nargiza Alisherovna